

Sanoatni rivojlantirish modeli orqali qishloq joylarini rivojlantirishning mohiyati va ahamiyati

Munisa Tolibjon qizi Sharopova
Makroiqtisodiyot va hududiy tadqiqotlar instituti
Aziz Faxritdin o'g'li Sharapov
Keimyung Universiteti

Annotatsiya: Mazkur ilmiy ishda sanoatni rivojlantirish modeli orqali qishloq joylarini kompleks rivojlantirish masalalari yoritilgan. Unda zamonaviy sanoat tarmoqlarini qishloq hududlariga joriy etish, mahalliy resurslardan oqilona foydalanish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi turmush darajasini oshirishga oid mexanizmlar tahlil qilingan. Shuningdek, qishloq joylarida kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, infratuzilmani modernizatsiya qilish hamda sanoatlashtirish orqali hududiy iqtisodiy barqarorlikka erishishning dolzarbligi asoslab berilgan. Tadqiqot natijalarida sanoatni rivojlantirish modeli orqali qishloq hududlarini barqaror rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va istiqbollari ochib berilgan hamda amaliy takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: qishloq joylari, qishloq hududlari, tug'ilish, qarilik, migratsiya, resurslardan foydalanish, aholi daromadlari, ish bilan bandlik

The essence and importance of rural development through the industrial development model

Munisa Tolibjon kizi Sharopova
Institute of Macroeconomics and Regional Studies
Aziz Fakhritdin o'glu Sharapov
Keimyung University

Abstract: This scientific work covers the issues of integrated development of rural areas through the industrial development model. It analyzes the mechanisms for introducing modern industrial sectors into rural areas, rational use of local resources, creating new jobs and improving the living standards of the population. It also substantiates the relevance of supporting small and medium-sized businesses in rural areas, modernizing infrastructure and achieving regional economic stability through industrialization. The research results reveal the socio-economic significance and prospects of sustainable development of rural areas through the industrial development model and provide practical suggestions.

Keywords: rural areas, rural areas, birth rate, old age, migration, resource use, population income, employment

Hozirgi kunda O‘zbekistonning rivojlanishi va qishloq xo‘jaligi sanoatining o‘zaro aloqadorligi juda kuchayib bormoqda, chunki qishloq xo‘jaligi mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligini ta‘minlashda asosiy rol o‘ynaydi. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan taqdim etilgan ma‘lumotlarga ko‘ra 2017-yilda jami 32,1 million aholining 16 million 60 ming aholisi (49,4%) qishloq hududlarida istiqomad qilgan, 2023-yilga kelib esa jami 36,8 kishidan 17,8 millioni qishloq hududlarida istiqomad qilgan. Bu ulardagi iqtisodiyot ixsoslashuvi qishloq xo‘jaligiga va xizmat ko‘rsatishga bog‘langanligidandir.

Qishloq tumanlari asosan mahsulotlarini yetishtirishga va rekrutsion turizmga asoslangan bo‘lib qishloq hududlari sektorining rivojlanishi mamlakatning umumiy rivojlanishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi jumladan: iqtisodiy o‘sish, bandlik va ijtimoiy barqarorlik, oziq-ovqat xavfsizligi va ichki bozor, ekologik barqarorlik, texnologik rivojlanish va innovatsiyalar, tashqi savdo va eksport imkoniyatlar. Qishloq hududlari deganda, aholi asosan dehqonchilik, chorvachilik va boshqa qishloq xo‘jaligi faoliyatlari bilan shug‘ullanuvchi, sanoat va xizmatlar sohalari rivojlanmagan, tabiiy resurslar asosida yashash va ish faoliyatini olib boradigan hududlar tushuniladi.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qishloq hududlarining taraqqiyoti nafaqat mahalliy, balki butun mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy farovonligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Qishloq tumanlarida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, masalan, sun‘iy intellekt, avtomatlashtirish va innovatsion metodlarni qo‘llash orqali ishlab chiqarishni oshirish va bunda samaradorlik va ekologik jihatdan ijobiy natijalarga erishish mumkin. Hududlarda raqobat dasturlarini oshirish nafaqat ichki bozorni ta‘minlash, balki eksport imkoniyatlarini ham kengaytirishi mumkin. Mahalliy xomashyo va resurslardan oqilona foydalanish hududlarda yangi bozorlar ochilishiga sabab bo‘ladi, iqtisodiy o‘sish kuchayadi, import o‘rnini bosuvchi va eksportbop tayyor mahsulotlarni diversifikatsiya qilishga xizmat qiladi.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlanishini, jumladan o‘zining sanoat salohiyati bilan ajralib turadigan “yashil” iqtisodiy tamoyillari asosida ilmiy-amaliy asoslash O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston - 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi. Bu, sanoat korxonalarida ekologik toza texnologiyalarni joriy etishni, chiqindilarni kamaytirishni, energiya samaradorligini oshirishni va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Shu tarzda, sanoatning atrof-muhitga salbiy ta‘sirini kamaytirish imkoniyatlari yaratilib, uning uzoq muddatda barqaror rivojlanishi ta‘minlanadi.

Qishloq tumanlari tushunchasini quyidagi yondashuvlar asosida yoritib berish mumkin. Bular: demografik yondashuv, tabiiy resurslar asosidagi yondashuv, bandlik va ijtimoiy yondashuv, va iqtisodiy yondashuv.

O'zbekiston Respublikasi qishloq aholisining demografik vaziyatida tug'ilishning darajasi yuqoriligi, o'limning nisbatan kichik ko'rsatkichni tashkil etishi va mexanik harakatchanlikning sustligi uning yuqori sur'atda o'sish xususiyatini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Qishloq aholisining o'zi esa asosan uch omil asosida o'zgarib boradi. Bular aholining tabiiy ko'payishi, migratsiya qoldig'i va ma'muriy-hududiy o'zgarishlar, ya'ni qishloqlarga shahar maqomini berish yoki aksincha, shaharlarni qishloqlar darajasiga tushirishdan iborat. Respublika qishloq aholisi o'sishi va joylashishi aholi tabiiy ko'payishning yuqoriligi, urbanizatsiya darajasining pastligi, qishloq aholisining jami aholi tarkibidagi salmog'ini yildan-yilga oshib borishida o'z aksini topmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi tomonidan nashr etilgan statistik to'plamda ko'rsatilganidek O'zbekiston Respublikasidagi demografik holatni ifodalovchi ko'rsatkichlar, jumladan, ma'muriy-hududiy bo'linishi, aholi soni, aholining jinsi va yosh tarkibi, hududlar bo'yicha taqsimlanishi, tug'ilish va o'lim, nikoh va ajrimlar soni hamda aholi migratsiyasi to'g'risidagi ma'lumotlarga bog'liq. To'plamda O'zbekiston Respublikasi aholisi soni to'g'risidagi ma'lumotlar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri kesimida taqdim etilgan. Doimiy aholi soni to'g'risidagi ma'lumotlar 2016-2020 yillar 1 yanvar holatiga aholining jinsi, yoshi, shahar va qishloq aholisi kesimida keltirilgan.

O'zbekistonda qishloq joylarini demografik yondashuv asosida o'rganishda, aholisi zich joylashmagan, asosan yadro (markaz) va unga birlashgan kichik aholi punktlaridan iborat hududlar sifatida ta'riflanadi. Qishloq joylarida aholi zichligi nisbatan past bo'lib, ular asosan qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanadi. Bundan tashqari qishloq joylarida asosiy iqtisodiy faoliyat qishloq xo'jaligi, chorvachilik va bog'dorchilik kabi tarmoqlarni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy infratuzilma tomonidan olib qaralganda qishloq joylarida ijtimoiy infratuzilma, masalan, ta'lim, sog'liqni saqlash va transport tizimlari rivojlanish darajasi shahar joylariga nisbatan pastroq. Rivojlanish muammolari jihatdan qishloq joylarida iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning cheklanganligi, migratsiya jarayonlari va yoshlarning shahar joylariga ko'chishi kabi muammolar mavjud.

Bugungi kunda qishloq aholisining ijtimoiy resurslar, hayot tanloviga, kasbiy, oilaviy va migratsiya harakatlariga ta'sir qiluvchi sharoit va omillarni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Qishloq aholisi uchun ijtimoiy infrastruktura tizimini ta'minlashning birqancha tarmoq masalalarini aniqlashtirish yuqori ahamiyat kasb etadi. Xususan, qishloq aholisining ko'payishi asnosida mehnat resurslarining ortishi bilan bo'sh ish o'rinlariga, turli xizmatlar sohasiga, jamoat transporti vositalariga, yangi axborotni

taqdim etish va kommunikatsiya texnologiyalariga, ta'lim va tarbiya uchun yetarli, sifatli resurslarga, sog'liqni saqlash va innovatsion yondashuvlarga ehtiyojning mavjudligi shular jumlasidandir.

Shuni e'tiborga olish lozimki, har bir hududning rivojlanishi ikkita bosh tamoyilga bog'liq: funksional (yerlardan uning ichki, tabiiy xususiyatlari va resurs qiymatiga mos holda foydalanish) va pozitsiyali (boshqa ob'ektlarga nisbatan yerning hududiy va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatini joylashuvi hisobi). Bu tamoyillar asosida hududlar qishloq joylariga, yuqori urbanizatsiyalashgan yoki sanoat zonalariga ajratiladi. Gohida inson uchun kirish man etilgan, xo'jalik faoliyati yuritish taqiqlangan, kam foydalaniladigan, inson oyog'i yetmagan yoki tabiat qo'riqxonalari hududlari sifatida foydalaniladigan hududlar ham ajratiladi.

Iqtisodiy geografiyada "qishloq joyi yirik shaharlar atrofida o'zining tabiiy sharoitlari va resurslari, qishloq aholisi hamda ushbu hududda asosiy ishlab chiqarish fondlari va moddiy madaniyatning turli xil unsurlariga ega bo'lgan aholi yashaydigan joy" sifatida talqin etiladi.

Qishloq hududlaridagi demografik bo'shliqlar avvalo mehnat resurslari yetishmovchiligida namoyon bo'lishi mumkin. Yoshlarning ommaviy ko'chib ketishi oqibatida qishloqlarda mehnatga layoqatli aholi ulushi kamayadi, bu esa qishloq xo'jaligi va mahalliy iqtisodiyotga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Demografik mutanosiblikning buzilishi qishloqlarda tug'ilish darajasiga ham kelgusida ta'sir ko'rsatishi mumkin sababi yoshlar shaharlarga ketishi tufayli.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, qishloq hududlari mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishida hal qiluvchi o'rin tutadi. Ularning rivojlanishi butun mamlakat barqarorligiga va farovonligiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston - 2030 strategiyasi to'g'risida"gi farmoni.
2. A. Sattorov. "O'zbekiston Respublikasi qishloq aholisining o'sishi va joylashishining ba'zi masalalari". Termez University of Economics and Service. <https://scientific.tues.uz/index.php/BSRTUES/article/view/5>
3. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. <https://stat.uz/uz/nashrlar/3654-o-zbekistonning-demografik-yillik-to-plami>
4. Mamajonov M., Ahmadaliyev Yu. I. "O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi". 2019-yil. https://library.tdau.uz/uz/books/2514?utm_source
5. A.U. Nurmatov. "Qishloq joylarini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan tadqiq etishning nazariy va uslubiy asoslari". Qarshi davlat Universiteti. 2023-yil. <https://uzzamin.uz/ru/magazines/3-2023/qishloq-joylarini-ijtimoiy-iqtisodiy-jihatdan-tadqiq-etishning-nazariy-va-uslubiy-asoslari-uzzamin.pdf>

6. G‘ulomov S.S. “Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning iqtisodiy tahlili muammo va yechimlari”. Tashkent State Agrarian University, professor, TSAU, Uzbekistan. 2024-yil 15 - may. <https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0042/4.12.pdf>

7. Soliyev A. S, Komilova N. K, Yanchuk S. L, Jumaxanov Sh. Z, Rajabov F. T. “Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya”. <https://kutubxona.samduuf.uz/book?id=1681>

8. Rixsiboyev H. “O‘zbekiston misolida qishloqdan shahar hududlariga ichki migratsiya natijasida yuzaga kelayotgan demografik bo‘shliqlar”. Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar online ilmiy jurnali. 2025-yil. <https://sciencebox.uz/index.php/jars/article/download/14091/14242/13694>